

Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

2024



No 8

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati



74-91 xalqaro daraja
ISSN: 2992-8982



Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 283 sahifa.
E'lon qilishga 2024-yil 7-avgustda ruxsat etildi.*

Bosh muharrir o'rinbosari:
Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:
Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, t.f.d., prof., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinbosari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati
Axmedov Sayfullo Normatovich, i.f.n., professor, MIM akademiyasi rektori
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., Navoiy davlat pedagogika instituti rektori
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, p.f.f.d., (PhD), Buxoro muhandislik-texnologiya instituti rektori
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU Hududiy ta'lim muassasalari va markazlar bo'yicha prorektor v.b.
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TDIUprofessori
Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU professori
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori
Axmedov Ikrom Akramovich, i.f.d., TSUE professori
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, i.f.f.d., TDIU dotsenti
Utayev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farxod, O'zR Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, i.f.d., TDIU professori
Musayeva Shoirazimovna, SamDu IS instituti professori
Cham Tat Huei, (PhD) USCI universiteti professori, Malayziya
Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d.,(PhD) "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinbosari
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d.,(PhD) TAQU katta o'qituvchisi
Djudi Smetana, p.f.n., Pitsburg davlat universiteti dosenti, Pittsburgh, Kansas, AQSH
Krissi Lyuis, p.f.n., Pitsburg davlat universiteti dosenti, Pittsburgh, Kansas, AQSH
Ali Konak (Али Кўнак), i.f.d., prof., Karabuk universiteti dosenti, Turkiya
Glazova Marina Viktorovna, i.f.n., "LUKOIL-Energoservis" Kompaniyasi iqtisodchisi, Moskva.
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., (PhD) TDIU dotsenti
Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktoranti
Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Oqil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

Abdurakhmanov Kalandar Khodjaevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

Rae Kwon Chung, honorary professor of TSUE, Nobel laureate, South Korea,

Osman Mesten, member of the Turkish Parliament, head of the Turkey-Uzbekistan Friendship Society

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, DSc, Prof., Minister of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan

Buzrukkhanov Sarvarkhan Munavvarkhanovich, DSc, Deputy Minister of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan

Akhmedov Durbek Kudratillayevich, DSc, Prof., Deputy of the Legislative Chamber of the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan

Akhmedov Sayfullo Normatovich CSc, Prof., Rector of Academy of Labor and Social Relations

Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, DSc, Prof., TSUE Vice-Rector for Scientific Affairs and Innovation

Kalonov Mukhiddin Bakhritdinovich, DSc, Prof., Rector of the Navoi State Pedagogical Institute

Siddikova Sadokat Ghaforovna, PhD, Rector of the Bukhara Institute of Engineering and Technology

Khudoykulov Sadirdin Karimovich, DSc, Prof., acting Vice-rector for regional educational institutions and centers of TSUE

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, DSc, Prof., of TSUE

Samadov Askarjon Nishonovich, CSc, Prof., of TSUE

Slizovsky Dimitriy Yegorovich, DSc, Prof., of the People's Friendship University of Russia

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, DSc, Prof., Rector of International "Nordic" University

Akhmedov Ikrom Akramovich, DSc, Prof., of TSUE

Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja ugli, DSc, Prof., of TSUE

Utayev Uktam Choriyeich, Deputy Head of the DGPO of the Republic of Uzbekistan

Ochilov Farkhod, Head of the DCECGPO of the Republic of Uzbekistan

Eshtayev Alisher Abduganievich, DSc, Prof., of TSUE

Shoira Azimovna Musaeva, professor of SamDu IS Institute

Cham Tat Huei, PhD, professor at USCI University, Malaysia

Akhmedov Javokhir Jamolovich, PhD, deputy of executive director of the "El-yurt umidi" fund

Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, PhD, Senior Lecturer at Tashkent University of Architecture and Construction

Judy Smetana CSc, Associate Professor, Pittsburgh State University, Pittsburgh, Kansas, USA

Chrissy Lewis CSc, Associate Professor, Pittsburgh State University, Pittsburgh, Kansas, USA

Ali Konak DSc, Prof., Associate Professor of Karabuk University, Turkey

Glazova Marina Viktorovna, CSc, economist at LUKOIL-Energoservis Company, Moscow.

Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, associate professor of TSUE

Sevil Piriyea Karaman, PhD, doctoral student at Ankara University, Turkey

Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, independent researcher of TSUE

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Po'latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., profesor

Aliyev Bekdavlat Aliyevich, f.f.d., TDIU professori

Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori

Xalikov Suyun Ravshanovich, i. f. n., TDAU dotsenti

Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti

Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d, TDIU dotsenti

Kamilova Iroda Xusniddinovna, i.f.f.d., TDIU dotsenti

G'afurov Doniyor Orifovich, p.f.f.d., (PhD)

Fayziyev Oybek Raximovich, i.f.f.d. (PhD), Alfraganus universiteti dotsenti

Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti

Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, i.f.d., TMI dotsenti

Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU katta o'qituvchisi

Babayeva Zuhra Yuldashevna, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.



MUNDARIJA

Benchmarking asosida oliy ta'lim muassasalarining raqobatbardoshlik xususiyatini oshirish.....	16
Qo'ng'irotboy Avezimbetovich Sharipov, Zaynutdinova Umida Djalolovna	
Mehnat resurslarini samarali boshqarish orqali ish bilan bandlikni ta'minlash	20
Shakarov Zafar Gafforovich	
Трансформация человеческого капитала в условиях цифровизации и внедрения искусственного интеллекта в банковскую экосистему	24
С.С. Исмаилов	
“Kreativ iqtisodiyot” va “kreativ industriya”: mohiyati, nazariy jihatlarining tahlili	32
Dusmuxamedov Oybek Suratbekovich	
Muammoli kreditlar va ularni bartaraf etish yo'llari.....	37
Tojiyev Sardor Dilmurod o'g'li	
Don mahsulotlari tarmog'ida mavjud kamchiliklar va ularning yechimlari	41
Sh.B. Donayev	
Eksportni rivojlantirish iqtisodiy o'sishning asosiy omillaridan biridir	45
Xursandov Komiljon Maxmatkulovich	
Yirik soliq to'lovchilar bo'yicha soliq ma'muriyatchiligini tashkil etish.....	49
Idirisov Alisher Otajonovich	
Institutsional investorlar faoliyatini tashkil etishning konseptual jihatlarini.....	53
Sultanov Maxmud Axmedovich	
Poverty in developing countries: new problems and solutions.....	57
Amirdjanova Sitara Sunnat kizi	
Факторы, влияющие на успешное функционирование скандинавской модели развития экономики	61
Вохидова Мехри Хасановна	
Анализ зарубежного опыта методологии оценки финансового потенциала развитых стран	69
Буранова Лола Вахобовна	
Мамлакатimizda islom moliyaviy xizmatlarini joriy etishning zarurligi.....	78
Babamatov Tolib Xakimovich	
Davlat-xususiy sheriklik loyihalarining tashkiliy-huquqiy mexanizmlari	83
S.A.Karabayev	
O'zbekiston tijorat banklarida valyuta operatsiyalarini amalga oshirish yo'llari	90
Yusupov Aziz Shuxratovich	
Sanoatda raqamli transformatsiyaning shakllanishi va rivojlanishi	95
Gulbayeva Feruza Islamovna	
Oliy ta'lim muassasalarining mamlakat iqtisodiy rivojlanishiga ta'siri.....	102
Sherov Alisher Bakberganovich	
Maxsus kiyimlar tikishda foydalaniladigan gazlamalar tahlili	107
Sayidova Maftuna Hamroqul qizi	
O'zbekistonda elektron bank xizmatlarini o'zgartirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish	111
Umarova Malika Baxtiyarovna	
Оценка влияния налоговой системы на финансовое состояние организаций.....	116
Умида Юлдашева	
Теоретическое обоснование интернет-маркетинга в социальных сетях.....	120
Арипходжаев Саидамир Фузулиддинович	



Sport tashkilotining marketing strategiyasini ishlab chiqish.....	127
Ismoilov Sherzod Dilshodovich	
Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishda klaster tizimini joriy qilish jarayonlari.....	132
Ziyadullayev G'ayrat Umidulla o'g'li	
Hududlar soliq salohiyatini oshirishda soliq risklarini boshqarishning zamonaviy tendensiyalari	138
Sharipov Narzullo G'ulomovich	
O'zbekistonning xalqaro bozordagi faoliyatini kengaytirishda marketing strategiyalaridan foydalanish samaradorligi.....	144
Shadieva Madina Djaloliddin qizi	
Xususiy tadbirkorlik va kichik biznes subyektlarining rivojlanish tendensiyalari.....	148
Jumanazarova Z.K.	
Xalqaro savdoning O'zbekiston iqtisodiyotiga ta'siri	154
Rashidov Bekzod Ulug'bek o'g'li, Isayev Laziz Baxtiyorovich	
Oliygochlarni optimallashtirishda sinergiya samarasiga erishish yo'llari	158
Adizov Sanjar Rashidovich	
Iqtisodiyotni raqamlashtirish sharoitida bank tizimining barqarorligini ta'minlash asosida aholi kambag'allik darajasini qisqartirish	165
Xoliyrov Murod Qahramon o'g'li, Xoliyrova Shoxista Qahramon qizi	
Концептуальная основа маркетинга в социальных сетях в туризме.....	174
Касимова Зилова Гуламиддиновна	
O'zbekistonda don mahsulotlari klasterlarida ishlab chiqarish va xo'jalik faoliyatini rivojlantirish	182
Alimov G'ayratjon Abduraxmon o'g'li	
Актуальные проблемы и пути решения приватизации государственного имущества в узбекистане	186
Шахзод Сайдуллаев	
Ttijorat bank daromadlaridagi risklarni baholash va boshqarishni takomillashtirish	192
Ahmedov Komron Muhammadaliyevich	
Sanoat korxonalarini iqtisodiy salohiyatini oshirishga ta'sir etuvchi omillar tahlili.....	196
Quyjanov Xurshid Abdullayevich	
Tashkilotning moliyaviy natijalarini hisobga olishda auditni takomillashtirish masalalari	200
Bakayev Xurshid Maxmudovich	
Yirik soliq to'lovchilar bo'yicha hududlararo davlat soliq inspeksiyasi o'rni va ahamiyati	206
Normurzaev Umid Xolmurzaevich	
Анализ международного опыта в сфере тепличного овощеводства	214
Нурутдинова Зухра Алишеровна	
Hududda turizm xizmatlarini rivojlantirishda xorijiy mamlakatlar tajribalarining mohiyati	220
Madaminova Sanobar Askarovna	
Hududning iqtisodiy o'sishini "yashil" iqtisodiyot asosida shakllantirishning nazariy asoslari	226
Shomirzayev Abdug'affor Abdujabbor o'g'li	
Davlat tibbiy sug'urta jamg'armasi faoliyati tahlili.....	230
Umurzakova Mo'tabarxon Nodir qizi	
Qurilish materiallarini ishlab chiqarish korxonalarining boshqarish tizimini takomillashtirish.....	234
Uzakova Umida Ruziyevna	
O'zbekistonda turistik majmualarni boshqarishning zamonaviy konsepsiyalari va yondashuvlarining metodologik jihatlar.....	241
Xomidov Qaxxorali Qurbonali o'g'li	
Aktiv va reaktiv quvvatlari tushunchasi va ularni soliqqa tortishdagi mavjud muammolar	247
Boykabilov Bahodir Mustafayevich	



Kichik sanoat zonalari korxona va mahsulotlar raqobatbardoshligini baholashga uslubiy yondashuv	251
Ozoda Batirovna Sakiyeva	
Investitsion jozibadorlikni baholashning uslubiy jihatlari	255
N.N.Zikrillayev	
Hududlarda turizm tarmoqlari infratuzilmasi va uni rivojlantirishni boshqarishning metodologik jihatlari	263
Saidova Dilfuza Abdufattohovna	
The connection of legal protection of geographical indications and state's economic growth	268
Almosova Shahnoza Sobirovna	
Kichik biznesning integratsiyalashuv mexanizmlarini shakllantirish	273
Israilov Rustam Ibragimovich	
Aksiyadorlik jamiyatlarida biznes jarayonlarni samarali boshqarishning nazariy asoslari va o'ziga xos xususiyatlari	277
D.D. Suvanova	



AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA BIZNES JARAYONLARNI SAMARALI BOSHQARISHNING NAZARIY ASOSLARI VA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI



D.D. Suvanova

Biznes va tadbirkorlik
oliy maktabi tayanch doktranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada aksiyadorlik jamiyatlarining biznes jarayonlariga berilgan ta'riflar tahlili, samarali boshqarish va uning nazariy asoslariga mualliflik yondashuvlari, biznes jarayonlarning o'ziga xos jihatlari, bu boradagi iqtisodchi olimlar va mustaqil xorijiy tashkilotlarning nazariy va amaliy qarashlari ifoda qilingan. Bundan tashqari, biznes jarayonlarni takomillashtirishdagi muammolar va ularning yechimiga qaratilgan tavsiya va takliflar ishlab chiqishga ilmiy yondashilgan.

Kalit so'zlar: biznes jarayonlar, samarali boshqarish, qo'mitalar, IPO va SPO, raqamli transformatsiya, ERP tizimi, raqobat, ESG tamoyillari, biznes muhit.

Abstract: In this article, the analysis of the definitions given to the business processes of joint-stock companies, the author's approaches to effective management and its theoretical foundations, the specific aspects of business processes, the theoretical and practical views of economists and independent foreign organizations in this regard are expressed. In addition, the improvement of business processes a scientific approach to the development of recommendations and proposals aimed at solving problems and their solutions.

Key words: business processes, effective management, committees, IPO and SPO, digital transformation, ERP system, competition, ESG principles, business environment.

Аннотация: В статье проведен анализ определений, даваемых бизнес-процессам акционерных обществ, изложены авторские подходы к эффективному управлению и его теоретические основы, конкретные аспекты бизнес-процессов, теоретические и практические взгляды экономистов и независимых зарубежных организаций на этот счет. Кроме того, при совершенствовании бизнес-процессов применяется научный подход к разработке рекомендаций и предложений, направленных на решение проблем и их устранение.

Ключевые слова: бизнес-процессы, эффективное управление, комитеты, IPO и SPO, цифровая трансформация, ERP-система, конкуренция, принципы ESG, бизнес-среда.

KIRISH

Bugungi kunda aksiyadorlik jamiyatlarida biznes jarayonlarni samarali boshqarish muhim ahamiyatga ega bo'lib, bu jamiyatning umumiy ish faoliyatini yaxshilash, mavjud barcha resurslardan oqilona va samarali foydalanish hamda bozorda jamiyatning raqobatbardoshligini ta'minlashga katta yordam beradi. Zamonaviy raqamli iqtisodiyot sharoitida aksiyadorlik jamiyatlarining korporativ boshqaruv tizimlarini takomillashtirish bilan bir qatorda ularning biznes jarayonlarini optimallashtirish ham dolzarb masalalardan biriga aylanmoqda.

Mamlakatimizda aksiyadorlik jamiyatlari va ularning biznes muhit sharoitida biznes jarayonlarining optimallashtirish va yanada rivojlanishining xuquqiy asoslari yaratilmoqda. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 8-apreldagi PF-101-sonli Farmonida qo'yidagi vazifalar begilangan[1]:

- aksiyadorlik jamiyatlarida transformatsiya va xususiyashtirish jarayonlarini samarali tashkil etishga qaratilgan maxsus boshqaruv tizimini joriy etish;

- jamiyat kuzatuv kengashining Strategiya va investitsiyalar qo'mitasi raisi uning mustaqil a'zolari orasidan tayinlash va mazkur qo'mitaga korxonaning transformatsiya va xususiyashtirish jarayonlarini doimiy boshqarish vazifalarini yuklatish;



- jamiyat ijro organi rahbarining transformatsiya masalalari bo'yicha birinchi o'rinbosari lavozimi joriy etilishi va unga bo'ysunadigan loyiha ofisi tashkil etilishi;

- jamiyat ijro organi rahbarining transformatsiya masalalari bo'yicha birinchi o'rinbosariga ijro organining barcha rahbar o'rinbosarlari va tarkibiy bo'linmalar transformatsiyaga tegishli masalalar bo'yicha hisobdor bo'lishi;

- jamiyat ijro organi rahbarining transformatsiya masalalari bo'yicha birinchi o'rinbosari va loyiha ofisining xarajatlar smetasi kuzatuv kengashi tomonidan alohida tasdiqlanishi.

Jamiyat kuzatuv kengashi tomonidan ijro organi rahbariga xususiyashtirish jarayonlarini, shu jumladan aksiyalarni ommaviy joylashtirishni (IPO) sifatli va belgilangan muddatlarda amalga oshirganligi uchun alohida mukofot yoki amalga oshirmaganlik uchun javobgarlik choralari belgilanligi ushbu tadqiqot ishining dolzarbligini ifoda qiladi. Ushbu vazifalarning samarali bajarilishi, birinchi navbatda, jamiyatning biznes jarayonlarini samarali boshqarishni talab qiladi.

Aksiyadorlik jamiyatlari o'zlarining keng ko'lamli va turli xil faoliyat turlari tufayli ko'plab murakkab biznes jarayonlarni boshqarishlari kerak bo'ladi. Ushbu jarayonlar mahsulot ishlab chiqarish yoki xizmatlarni ko'rsatishdan tortib, moliyaviy hisobotlar tuzishgacha bo'lgan keng doiradagi operatsiyalarni o'z ichiga oladi. Samarali biznes jarayonlar boshqaruvi, birinchi navbatda, strategik rejalashtirish, mahsulotlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatishdagi sifatni ta'minlash, uni nazorat qilish hamda mijozlarga xizmat ko'rsatishni boshqarish va uning sifatini oshirishga ham katta hissa qo'shadi. Shuning uchun ushbu maqola mavzusi dolzarb bo'lib hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Aksiyadorlik jamiyatlarida biznes jarayonlarni samarali boshqarishning nazariy asoslari va amaliyotdagi o'ziga xos xususiyatlarini chuqur tahlil qilish orqali ushbu muammolarni hal etish yo'llarini ishlab chiqish muxim masaladir. Biznes jarayonlarni boshqarishdagi eng yaxshi amaliyotlar va zamonaviy yondashuvlar, biznes jarayonlarni boshqarish samaradorligini oshirish yo'llari, shuningdek, bu boradagi xorijiy va mahalliy iqtisodchi olimlarning qarashlari va ularning bu boradagi amaliy tajribalari muhim bo'lmoqda.

Bugungi kunda aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruvni shakllantirish, uni rivojlantirish hamda takomillashtirish borasida xorijiy va mahalliy olimlar ko'pgini imliy asarlar nashr qilib kelmoqda. Bunday iqtisodchi olimlar qatoriga Bob Triker[2], A. Berle[3], V. Bratton[4] kabi xorijlik olimlarni misol qilish mumkin. Korporativ boshqaruv, uning mexanizmlari va korporativ boshqaruvni baholash tadqiqoti xorijiy olimlardan Dj. Djonson, Shoulz K., Uittington [5] va boshqa olimlarning ishlarida rivojlantirilgan.

O'zbekistonlik olimlar ham respublikada korporativ boshqaruv muammolarini tadqiq etish va rivojlantirishga hissa qo'shganlar. Bular orasida B. Xodiyev[6], M. Xamidulin[7], D. Suyunov[8] va boshqalarni ko'rsatish mumkin.

Biroq, O'zbekistonda davlat ulushi mavjud aksiyadorlik jamiyatlarida biznes jarayonlarini samarali boshqarish, uning nazariy asoslari va o'ziga xosligini alohida yondashuvlar orqali nazariy va amaliy jihatidan o'rganish va uning korporativ boshqaruv samaradorligiga ta'sirini aniqlash, biznes muhitning ochiqqligi va shaffofligini yanada oshirish, shu orqali aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatiga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, boshqaruv samaradorligini ta'minlashda axborot texnologiyalaridan foydalanish masalalariga katta e'tibor qaratilish zaruriyati tug'ilmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada kuzatuv, abstrakt-mantiqiy fikrlash, tizimli tahlil, taqqoslash va iqtisodiy sharhlash usullaridan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR MUHOKAMASI

Aksiyadorlik jamiyatlarida biznes jarayonlarni samarali boshqarish bo'yicha nazariy va amaliy adabiyotlar keng doirada tadqiq etilgan.

D.X. Suyunov [9] va D.X. Suyunov va S.Ye. Elmirzayevlarning ko'pgina ilmiy ishlarida biznes muhit, korporativ boshqaruv va uning samaradorligini ta'minlash, korporativ boshqaruvning zamonaviy standartlari va usullarini joriy qilishning ilmiy asoslarini yaratish bo'yicha mamlakatimizda birinchilardan bo'lib bu borada ilmiy va amaliy asoslangan takliflarni ishlab chiqib, uning zarurligi ochib berilgan [10]. Bu olimlar aksionerlik jamiyatlari, davlat ulushi yuqori bo'lgan kompaniyalar faoliyatida zamonaviy korporativ boshqaruvning tayanch ustuni bo'lishini tahlil qilib bergan. Bundan tashqari, xorijiy iqtisodchi olimlardan M. Hammer va J. Champ o'zlarining klassik asarlarida biznes jarayonlarni qayta ishlash (BPR) konsepsiyasini taklif qilishgan. Ular biznes jarayonlarni tubdan qayta ko'rib chiqish orqali kompaniyalarni boshqarish samaradorligini sezilarli darajada oshirish mumkinligini ta'kidlashgan[11].



M.E. Porter o'zining "Raqobat ustunliklari" nomli asarida biznes jarayonlarning korporativ strategiyada qanday muhim rol o'ynashini tahlil qiladi. U tashkilotlar o'z biznes jarayonlarini qanday boshqarishi orqali raqobatda ustunlik qozonishi mumkinligini ko'rsatib beradi[12]. J. Jeston va J. Nelis kabi iqtisodchi olimlar biznes jarayonlarni boshqarish tizimlarining (BPMS) zamonaviy tashkilotlardagi ahamiyatini qayd etishadi. Ular ushbu tizimlar yordamida biznes jarayonlarni avtomatlashtirish, ularni monitor qilish va optimallashtirish mumkinligini ta'kidlaydilar[13].

Ma'lumki, BPMS (Business Process Management System yoki Business Process Management Software) ya'ni biznes jarayonlarni boshqarish tizimi – bu biznes jarayonlarni boshqarish konsepsiyasini amaliyotga (xayyotga) joriy qilishni ta'minlaydigan dasturiy ta'minoti va uning texnologik qismi hisoblanadi.

A. Bharadwaj va boshqa amaliyotchilar texnologik yangiliklarning korporativ strategiyaning va biznes jarayonlarni boshqarishdagi ta'sirini o'rganishadi. Ular raqamli texnologiyalar va ahborot texnologiyalarining tashkilotlarning operatsion samaradorligini oshirishdagi rolini tahlil qiladilar [14]. J. P. Womack va D. T. Jones o'zlarining ilmiy asarida ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish jarayonlarini optimallashtirish bo'yicha Lean management yondashuvlarini taqdim etishadi va resurslarni samarali ishlatish hamda isrofgarchilikni minimallashtirish orqali tashkilotlarning samaradorligini oshirish mumkinligini ko'rsatib beradilar[15]. J. Sutherland va K. Schwaber Agile metodologiyasining biznes jarayonlarni boshqarishdagi ahamiyatini ta'kidlaydilar. Ular tez o'zgaruvchan biznes muhitida Agile yondashuvlar yordamida tashkilotlarni yanada moslashuvchan va samarali boshqarish mumkinligini ta'kidlashadi[16].

Ma'lumki, Agile metodologiyasi dasturiy ta'minotni ishlab chiqish va loyihalarni boshqarish jarayonidir. U hamkorlik, mijozlar ehtiyojini qondirish va moslashuvchanlikni birinchi o'ringa qo'yadi. Ushbu yondashuv loyihalarni boshqarishning an'anaviy usullariga javob sifatida ishlab chiqilgan.

E.H. Schein o'zining ilmiy maqolasida korporativ madaniyatning biznes jarayonlarni boshqarishdagi rolini o'rganadi. U tashkilot ichidagi madaniyat qanday qilib biznes jarayonlarning samaradorligi va xodimlarning ushbu jarayonlarda ishtirok etish darajasining ta'sir qilishini tahlil qiladi[17].

Bundan tashqari biznes-jarayonlar va uni samarali boshqarishni ta'minlashda raqamli texnologiyalardan foydalanish ham muhim bo'lib hisoblanadi. Bu borada iqtisodchi olimlar va amaliyotda turli kompaniyalarning qarashlari va olib borayotgan siyosatlari ham mavjuddir. Iqtisodchi olimlardan Saul Nadkarni, Rolf Prügl raqamli transformatsiya jarayonlarida raqamli texnologiyalar kompaniyaning biznes modeli, mahsulotlari, ko'rsatayotgan xizmatlari yoki tashkiliy tuzilmalarida olib kelishi mumkin bo'lgan o'zgarishlar bilan bog'liq jarayondir[18] degan fikrni bildiradilar. Iqtisodchi Michael Hammer raqamlashtirish – bu biznes jarayonlari va loyihalarini o'zgartirish uchun raqamli texnologiyalardan foydalanish, masalan, xodimlarni mahsulotlarni tezroq ishga tushirishga yordam berish uchun yaratilgan yangi dasturiy platformalardan foydalanish malakasini oshirishdir. Raqamli transformatsiya raqamlashtirish sa'y-xarakatlarini o'z ichiga olishi mumkin bo'lsada, u loyiha darajasidan tashqariga chiqadi va butun tashkilotga ta'sir qiladi[19] – degan qarashlarni ilgari suradi.

Valerie Lang esa raqamlashtirish nafaqat texnologik o'zgarish, balki tashkiliy strategiyalar va tartiblarga ta'sir qiluvchi va biznes modellari va jarayonlarida chuqur o'zgarishlarga olib keladigan kengroq iqtisodiy va ijtimoiy siljish sifatida qabul qilinishini ta'kidlaydi[20].

Saul Nadkarni, Rolf Prügl: "Raqamli transformatsiya epchil, ochiq fikrli va doimiy o'rganiladigan biznes madaniyatini rivojlantiradi. Bu kompaniyalarga innovatsiyalar kiritish va bozor o'zgarishlariga tez moslashish qobiliyatini oshiradi. Bundan tashqari, raqamli transformatsiya raqamli texnologiyalarga asoslangan biznes modellari, mahsulotlari, ko'rsatiladigan xizmatlari va tashkiliy tuzilmalarida sezilarli o'zgarishlarni o'z ichiga oladi. Ushbu transformatsiya nafaqat yangi texnologiyalarni o'zlashtirish, balki ushbu texnologiyalardan samarali foydalanish uchun biznes jarayonlarini qayta ko'rib chiqish va qayta loyihalash bilan bog'liq. Takroriy vazifalarni avtomatlashtirish va qo'lda sodir bo'ladigan xatolarni kamaytirish orqali raqamlashtirish biznes jarayonlarini soddalashtiradi, bu esa tezroq qaror qabul qilish va samaradorlikni oshirishga olib keladi. Bu ham sezilarli xarajatlarni tejashga olib keladi[21] " – deydi.

Bu borada yirik taniqli kompaniyalardan McKinsey & Company: "Biznes jarayonlarda raqamlashtirish an'anaviy biznes jarayonlarini o'zgartirish uchun raqamli texnologiyalardan foydalanishni anglatadi. Bu samaradorlikni oshirish, qaror qabul qilishni yaxshilash va yangi qiymat takliflarini yaratish uchun raqamli vositalar va ma'lumotlarni integratsiyalashni o'z ichiga oladi[22]", – deb ta'kidlaydi. IBM kompaniyasi esa biznes jarayonlarini raqamlashtirish – bu biznes jarayonlarini o'zgartirish va soddalashtirish uchun raqamli texnologiyalarni joriy qilishdir. Ushbu jarayon ish jarayonlarini avtomatlashtirish, raqamli tizimlarni integratsiyalash va jarayon samaradorligini oshirish va strategik maqsadlarga erishish uchun ma'lumotlar tahlilidan samarali foydalanishni o'z ichiga oladi[23] – degan fikrni ilgari suradi.

Shunday qilib, fikrimizcha, aksiyadorlik jamiyatlarida biznes jarayonlarini samarali boshqarishga raqamli texnologiyalardan foydalanib, to'g'ri boshqaruv qarorlarini qabul qilish, jamiyatning barcha resurslaridan samarali va maqsadli foydalanishni ta'minlashga xizmat qiladigan mexanizmlar yig'indisiga tushuniladi[24]. Bu, o'z navbatida, biznes jarayonlarni samarali boshqarishdagi ayrim muammolarni aniqlashga imkon berishi mumkin.



Mazkur yuqoridagi tahliliy natijalar asosida biznes jarayonlarni boshqarishdagi ayrim muammolarni 1-rasmda ko'rib chiqish mumkin bo'ladi. Bu muammolar bugungi kunda faoliyat yuritayotgan aksiyadorlik jamiyatlarining biznes jarayonlarini samarali boshqarishda ham uchrashi mumkin.

1-jadval. Biznes jarayonlarni boshqarishdagi asosiy muammolar va ularning yechimlari¹

Kamchiliklar	Tavsif	Potensial yechimlar
Jamiyatni boshqarishda raqamli transformatsiya jarayonlarining sust amalga oshirilayotganligi	Ko'p aksiyadorlik jamiyatlari hali ham qog'oz asosidagi ishlarni ko'p qo'llaydi, bu jarayonlarning sekinligiga va xatolarga yo'l qo'yishiga olib kelmoqda	Jamiyatni va uning biznes jarayonlarini boshqarishga raqamli texnologiyalarni joriy etish ERP (Enterprise Resource Planning System – Korxona resurslarini rejalashtirish tizimi) tizimlari orqali jarayonlarni avtomatlashtirish
Jamiyatning moliyaviy va boshqa resurslarning cheklanganligi	Yangi texnologiyalarni sotib olish va yangi tizimlarni joriy etish uchun moliyaviy cheklovlar mavjudligi	Jamiyatning moliyaviy resurslarini oshirish uchun davlat yoki xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlik qilish, IPO va SPO tashkil etish
Jamiyat boshqaruvi va xodimlarining malaka va tajribasining yetishmasligi	Xodimlarning zamonaviy boshqaruv usullari va texnologiyalarni qo'llash bo'yicha malakasi yetarli emasligi	Boshqaruv xodimlarni va mutaxassislarni o'qitish va malakasini oshirish dasturlarini amalga oshirishni tashkil etish

Keltirilgan 1-jadvaldan ko'rinib turibdiki, raqamli transformatsiya jarayonlarining sekinligi va boshqaruv hamda resurslardan samarali foydalanish, turli xisob-kitoblarda xatolarga yo'l qo'yishlik kabi muammolarni bartaraf etishi muxim bo'lib, bunda ERP tizimini joriy etish orqali ma'lumotlarni boshqarish va jarayonlarni avtomatlashtirish mumkin bo'lib, bu esa qaror qabul qilish tezligini va sifatini oshiradi[25]. Moliyaviy resurslarning cheklanganligi doirasida davlat va xalqaro moliyaviy tashkilotlar bilan hamkorlik qilish orqali loyihalarni moliyalashtirish imkoniyatlarini kengaytirishi mumkin[26]. Boshqaruv xodimlari va mutaxassislarning malakasini oshirish esa jamiyatning boshqaruv va biznes jarayonlarning samaradorligini yaxshilaydi[27] (2-rasm) va yangi texnologiyalar bilan ishlash qobiliyatini yanada oshiradi.

2-jadval. Jamiyat faoliyatini va uning biznes jarayonlarini samarali boshqarishda potensial yechimlarning amaliy qo'llanilishi².

Yechimlar	Amaliy qo'llanishi	Kutilayotgan natija
Jamiyatni boshqarish va biznes jarayonlarga raqamli texnologiyalarni joriy qilish	Jamiyatni va uning biznes jarayonlarini boshqarishga ERP tizimlarini joriy etish	Boshqaruv va biznes jarayonlarini tezlashtirish va xatolarni kamaytirish orqali samaradorlikni ta'minlash
Jamiyatning moliyaviy resurslarni kengaytirish, shu jumladan, IPO va SPO tashkil etish	Davlat grantlari va xalqaro moliyalashtirishni jalb qilish, shuningdek, IPO va SPO tashkil etish	Yangi loyihalarni amalga oshirish va texnologik yangilanishlarni joriy qilish
Jamiyatning boshqaruv xodimlari va mutaxassislarning malaka oshirishini tashkil etish	Jamiyatning boshqaruv xodimlari va mutaxassislari uchun muntazam o'quv kurslarini tashkil qilib borish	Jamiyatning boshqaruv xodimlari va mutaxassislarning texnologik yangiliklarni qo'llash qobiliyatini oshirish

Aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatiga ERP tizimini amaliy qo'llanilishi natijasida jamiyatlar o'z faoliyatini yanada avtomatlashtirishga va ma'lumotlarni boshqarish tizimini yaxshilashga qodir bo'ladi. Bu, o'z navbatida, biznes jarayonlarni tezlashtiradi va xatolarni sezilarli darajada kamaytiradi[28]. Davlat grantlari va xalqaro moliyalashtirish esa yangi texnologiyalarni sotib olish va tizimlarni yangilash imkoniyatini beradi. Xodimlarning malakasini oshirish esa ish jarayonlarida texnologik yechimlarni samarali qo'llash imkoniyatini yanada oshiradi[29].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qiladigan bo'lsak, biznes jarayonlarni samarali boshqarish – bu har qanday aksiyadorlik jamiyatining faoliyatida o'zgarishlarni oldindan xisobga olishni, mavjud barcha resurslardan samarali foydalanishni, yangi texnologiyalarni joriy qilishni ta'minlash, boshqaruv jarayonida korporativ madaniyatni amalga oshirish, mavjud muammolarni tahlil qilishni o'z ichiga oluvchi harakatlar yig'indisi tushunilib, jamiyatning muvaffaqiyat kalitidir. Biroq, ko'pgina aksiyadorlik jamiyatlari o'zlarining ichki jarayonlarini qayta ko'rib chiqish va takomillashtirish bo'yicha qiyinchiliklarga duch kelmoqdalar[30]. Bu qiyinchiliklar, asosan, o'zgaruvchan iqtisodiy muhit,

1 Tadqiqot ma'lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

2 Tadqiqot ma'lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.



texnologik yangilanishlar va raqobat kuchayib borishi kabi omillar bilan bog'liq. Shuning uchun biznes jarayonlarni samarali boshqarishni rivojlantirish va bu jarayonlarni zamonaviy boshqaruv usullari bilan integratsiyalash taklif etiladi[31].

Tahlil natijalari buyicha aksiyadorlik jamiyatlarida biznes jarayonlarni samarali boshqarishda zamonaviy boshqaruv usullari bilan integratsiyalash va mavjud bo'lgan muammolarni bartaraf etish hamda ularning samaradorligini oshirish uchun quyidagilarni taklif qilish mumkin bo'ladi:

Birinchidan, aksiyadorlik jamiyatlarida biznes jarayonlarni samarali boshqarishni ta'minlash uchun ushbu jarayonni raqamli transformatsiyalash va avtomatlashtirish zarur. Bunda aksiyadorlik jamiyatlari zamonaviy ERP tizimlarini va boshqa raqamli yechimlarni joriy etish orqali o'zlarining biznes jarayonlarini avtomatlashtirishlari hamda shu orqali boshqaruv va operatsion samaradorlikni oshirishlari zarur. Bu jarayonlar ma'lumotlarni boshqarish, hisobot berish va moliyaviy operatsiyalarni yaxshilash kabi amallarni o'z ichiga oladi. Ikkinchidan, biznes jarayonlarni samarali boshqarish orqali aksiyadorlik jamiyatining moliyaviy manbalarini kengaytirishni ta'minlash kerak. Jamiyatlar moliyaviy resurslarni kengaytirish uchun davlat grantlari, xalqaro moliyalashtirish dasturlari va boshqa moliyaviy yordam manbalarini faol izlashlari kerak. Aksiyadorlik jamiyatlarida IPO va SPO ham tashkil etish zarur. Bu mablag'lar yangi texnologiyalar va infrastrukturani rivojlantirish uchun zarur bo'ladi. Uchinchidan, aksiyadorlik jamiyatlarida biznes jarayonlarni samarali boshqarishni ta'minlaydigan va uni amalga oshiradigan rahbar va xodimlarni o'qitish hamda ularning malakasini oshirishni tashkil qilishdir. Bunda aksiyadorlik jamiyatlari rahbarlari va xodimlarini doimiy ravishda o'qitish va ularning malakasini oshirishga hamda rivojlangan mamlakatlarda faoliyat ko'rsatayotgan kompaniyalarning ijobiy tajribasini o'rganish va ulardan investitsiya jalb qilishni tashkil qilishi kerak bo'ladi. Xususan, yangi texnologiyalar va zamonaviy biznes jarayonlarni ishlab chiqish va uni samarali boshqarish metodologiyasi bo'yicha o'quv kurslari tashkil etish tavsiya qilinadi. To'rtinchidan, jamiyatdagi ichki kommunikatsiya va hamkorlikni kuchaytirishni yo'lga qo'yish zarur. Jamiyatlar o'zlarining ichki kommunikatsiyasini va bo'limlararo, boshqarmalararo va departamentlararo hamkorlikni yaxshilash orqali turli jarayonlarni samarali boshqarishda axborot texnologiyalarini joriy qilish orqali katta yutuqlarga erishishlari mumkin. Bu xodimlarning bir-biri bilan ma'lumot almashinuvini tezlashtiradi va umumiy ish samaradorligini oshiradi.

Demak, aksiyadorlik jamiyatlarida biznes jarayonlarni samarali boshqarish bo'yicha qilinadigan ishlar juda ko'p. Raqamli transformatsiya, moliyaviy resurslarning kengaytirilishi, xodimlarning malakasini oshirish va ichki kommunikatsiya hamda hamkorlikni yaxshilash orqali jamiyatlar o'zlarining boshqaruv va biznes jarayonlar samaradorliklarini sezilarli darajada oshirishlari mumkin. Ushbu yuqoridagi takliflar amalga oshirilganda, jamiyatlar o'z faoliyatlarini yanada optimallashtirishga va shu orqali iqtisodiyotning tarmoqlararo raqobatbardoshligini oshirishga qodir bo'ladilar. Keltirilgan takliflar nafaqat jamiyatning biznes jarayonlarining samaradorligini oshirishga, balki korporativ boshqaruv hamda umumiy iqtisodiy farovonlikni yaxshilashga ham hissa qo'shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 8 апрелдаги “Тадбиркорлик муҳитини яхшилаш ва хусусий секторни ривожлантириш орқали барқарор иқтисодий ўсиш учун шарт-шароитлар яратиш борасидаги навбатдаги ислохотлар тўғрисида”ги ПФ-101-сон Фармони.
2. Bob Tricker, Corporate Governance: Principles, Policies, and Practices William Gower Press, 2015.
3. Berle A., Means G. The modern Corporation and Private Property. - New York: Macmillan, 1932.
4. W. Bratton and Michael L. Wachter, Shareholder Primacy's Corporatist Origins: Adolf Berle and 'The Modern Corporation', 34 J. of Corp. L. 99, 104 (2008).
5. Джонсон Дж., Шоулз К., Уиттингтон Р. Корпоративная стратегия. Теория и практика. – М.: Вильямс, 2007. - С. 71.
6. Ходиев Б.Ю. Карлибаева Р.Х. Акрамова Н.П. Корпоратив бoшқарув: Укув қуяланма. – ТДИУ. 2010.
7. Хамидуллин М.Б. Ўзбекистонда корпоратив бoшқарувни жорий этиш муаммолари.–Т.: Иқтисодий тадқиқотлар маркази. 2006.
8. Суянов Д.Х., Елмирзаев С.Е., Корпоратив бoшқарув.2023 .
9. Suyunov D.X.: Korporatsiya status va rivojlanish yo'llari. Holders of reason, 2, 3, 134–139, 2024.
10. Suyunov D.X.: Theoretical principles of improving the modern corporate control system in joint stock companies. International journal of economic perspectives, 16, 11, 90-97, 2022.
11. Hammer M. & Champy J. Reengineering the Corporation: A Manifesto for Business Revolution. Harper Business. 1993.
12. Porter M.E. Competitive Advantage: Creating and Sustaining Superior Performance. Free Press.1985.
13. Jeston J. & Nelis J. Business Process Management. Routledge. (2014).
14. Bharadwaj A., E.I. Sawy, O. A. Pavlou & P. A Venkatraman. N. Digital business strategy: Toward a next generation of insights. MIS Quarterly, 37(2), 2013. 471-482.
15. Womack J. P. & Jones D. T. Lean Thinking: Banish Waste and Create Wealth in Your Corporation. Simon & Schuster.1996.
16. Sutherland J. & Schwaber K. The Scrum Guide.2011.
17. Schein E.H. Organizational Culture and Leadership. Jossey-Bass. 2010.
18. Saul Nadkarni & Rolf Prügl. Management Review Quarterly, 71(1), 1-24.2021.
19. Michael Hammer.Reengineering work: Don't automate, obliterate. Harvard Business Review 2024, May 21.



20. Valerie Lang. Saul Nadkarni & Rolf Prügl. *Management Review Quarterly*, 71(1), 1-24 2021.
21. McKinsey & Company. <https://www.mckinsey.com>.
22. IBM. <https://www.ibm.com/us-en>.
23. Suyunov D.X., Alimov.B.B.: Green economy and ways of its development in Uzbekistan, *genius repository*, 24, 7-15, 2023.
24. Суюнов Д.Х., Ганиходжаев Б.Ф., Хусаинов.Ш.А.: Пособие по корпоративному управлению. : Ташкент–адабиёт учкунлари. 2017.
25. To'raqulov Botirturdiyev O'g'li., Suyunov. D.X.: Umumiy ovqatlanish korxonalari faoliyatini rivojlantirishda marketing strategiyalaridan foydalanishni takomillashtirish., Ta'lim fidoyilari, 25, 5, 157-164, 2022, "Research and publications".
26. Suyunov D.X., Qodirov. T.U. Ways for a leader to work on speech and improve speaking skills. *American journal of pedagogical and educational research*, 11, 29-32, 2023.
27. Suyunov D.X., Kaytarov. V. Problems in the development of remote banking services in commercial banks of Uzbekistan. *World economics and finance bulletin*, 26, 39-46, 2023.
28. Суюнов Д.Х., Ёрматова. Н.К. Цифровая трансформация процессов управления персоналом в коммерческом банке. *Journal of new century innovations*, 43, 4, 75-78, 2023.
29. Суюнов Д.Х. Improving the methods of assessing the economic efficiency of digitalization of corporate management in joint-stock commercial banks. *Holders of reason*, 2, 3, 127-133, 2024.
30. Suyunov D.X.: Rihsiev. H.Y. The role of foreign investments in the development of small business and private entrepreneurship. *Epra international journal of socio-economic and environmental outlook (seeo)*, 9, 3, 18-23, 2022.
31. Suyunov D.X., Qodirjanov Abdugaffor.: "Human development summary capturing achievements in the hdi and complementary metrics that estimate gender gaps, inequality, planetary pressures and poverty. Human development index", *молодые ученые*, 2, 17, 95-100, 2024.
32. Suyunov D.X.: Theoretical principles of improving the modern corporate control system in joint stock companies. *International Journal of Economic Perspectives*, 16 (11), 90-97 Retrieved from <https://ijeponline.org/index.php/journal>.
33. Суюнов Д.Х, Саттаров Х.: Анализ особенностей управления инвестиционными проектами в нефтегазовой отрасли. *Образование наука и инновационные идеи в мире* <http://www.newjournal.org/> выпуск журнала № – 25 часть–2 июль –2023 156 2181-3187.
34. Суюнов Д.Х., Мирхидоятова Д. Давлат иштирокидаги акциядорлик жамиятларида илғор хорижий тажриба асосида корпоратив бoshqaruvни такомиллаштириш. *Uzbek Scholar Journal*, Volume- 27, April – 2024. www.uzbekscholar.com.
35. Suyunov D.X. Improving the methods of assessing the economic efficiency of digitalization of corporate management in joint-stock commercial banks. *Holders of reason*, Vol. 2 No. 3 | March 2024, 127-133.
36. Suyunov D.X., Qodirov T.U.: Inson rivojlanishining qisqacha sharhi, inson taraqqiyoti indeksidagi yutuqlar va gender tafovutlari, tengsizlik va sayyoraviy bosim ko'rsatkichlari. *Yosh olimlar ilmiy-amaliy konferensiyasi in-academy.uz/index.php/yo*. 2024.06.05.
37. Suyunov D.X. Assesment of the possibilities of using digital models of corporate management in joint-stock commercial banks. *Miasto Przyszłości Kielce 2024 Impact Factor: 9.9 ISSN-L: 2544-980X 1588Vol. 49 (2024)*.
38. Suyunov D.X. va bosh. Korporativ boshqaruvda inson resurslaridan oqilona boshqarish. *Holders of reason vol. 2 no. 6 (2024)*.
39. Suyunov D.X. va bosh. Rivojlanayotgan mamlakatlarda korporativ boshqaruv. *Holders of reason vol. 2 no. 6 (2024)*.
40. Suyunov D.X. va bosh. Sun'iy intellekt va raqamli boshqaruv texnologiyalarini korporativ boshqaruvda jadal joriy etish. *Holders of reason vol. 2 no. 6 (2024)*.
41. Суюнов Д., Рўзиев А., Кенжабаев А.: Электрон тижорат. "Brok class servis" МЧЖ босмахонасида chop қилинган. Дарслик. 2023 йил. 356 бет.

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2024. № 8

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

